SAYYID SHARIF JURJONIY “TA’RIFOT” ASARIDA U MA’NOLARNI BERISH ORQALI TERMIN SHARHLANISHI

Davronbek Dilmurod o’g’li Abdullayev
Oriental universiteti, Filologiya va tillarni o’qitish fakulteti stajyor o’qituvchisi

Annotatsiya: Sayyid Sharif Jurjoniy ko’plab fanlarga oid asarlargan yozgan olim bo’lib, uning asarlari ichida “Ta’rifot” asari alohida ilmiy qiymatga ega. Ushbu maqolada mazkur asarning tuzilish prinsiplariga oid ma’lumotlar o’rin olgan.

Kalit so‘zlar: Ta’riflash, lug`aviy va istilohiy ma’nolar, balog’at, nahv.

Sayyid Sharif Jurjoniy “Ta’rifot” asarida terminlarni sharhlashda asosan ikki usuldan foydalanilgan. Birinchi usul ta’riflash orqali sharhlash bo`lib, bunda ma’no boshqa so`zlardan foydalangan holda izohlanadi. Bunga quyidagi misollarni keltirishimiz mumkin:

الاستحالة: حركة في الكيف، كتسخين الماء وتبريده مع بقاء صورته النوعية.

Istihola *(O’zgarish): (Modda) holatining asl na’vini saqlab holgan holda o’zgarishi, suvning qaynashi va muzlashi kabi.*

الأجرام الفلكية: هي الأجسام التي فوق العناصر من الأفلاك والكواكب.

Al-ajromu-l-falakiyya *(Fazoviy obyetklar): ular falaklar va yulduzlar ustidagi jismlardir.*

الإنسان: هو الحيوان الناطق.

Inson *gapiruvchi jonzotdir.*

Ushbu misollardan tashqari yana ko’plab misollar “Ta’rifot” asarida topiladi. Jurjoniy ta’rif orqali sharhlash usulidan keng foydalangan. E’tiborni jalb qiladigan tomoni uning qisqa va lo’nda tarzda ta’riflarni keltirganidir. Holbuki, ta’rif orqali sharhlashda ma’noni ba’zan kengroq yoritish talab qilinadi. Ammo Jurjoniy yashagan davr ilm-fan yuqori darajada rivojlangani uchun bunga hojat sezilmagan deyishimiz mumkin bo’ladi.

Ikkinchi usul esa so`zning lug`aviy va istilohiy ma’nolarini keltirishdir. Bu usul arab olimlari tomonidan qadim zamonlardan qo`llanib kelingan usul hisoblanadi. Jurjoniy ham ushbu usuldan keng miqyosda foydalangan. Bunda u bir so`zni keltirib, avval في اللغة – “*tilda*” iborasini, so`ngra في الاصطلاح – “*istilohda*”, في العروض – “*aruzda*”, عند المنطقيين – “*mantiqchilar nazdida*” va shunga o`xshash iboralardan foydalanadi.

Ushbu usul orqali sharhlangan terminlarga quyidagi misollarni keltirishimiz mumkin:

Usuli fiqh terminlari:

الاجتهاد: في اللغة: بذل الوسع، وفي الاصطلاح : استفراغ الفقيه الوسع المقصود من جهة الاستدلال.

Ijtihod*: lug`atda kuch sarflashdir, istilohda esa faqihning dalil topishda bor kuchini sarflashidir.*

الإجماع: في اللغة: العزم والاتفاق، وفي الاصطلاح: اتفاق المجتهدين من أمة محمد عليه الصلاة والسلام في عصر على أمر ديني.

***Ijmo**: lug'atda: azm va ittifoqdir. Istilohda esa u Muhammad alayhissalotu vassalom ummati mujtahidlarining bir asrda bir diniy ish ustida ittifoq qilishidir.*

Fiqh terminlari:

الاعتكاف: هو في اللغة: المقام والاحتباس، وفي الشرع: لبث صائم في مسجد جماعة بنية.

***E'tikof**: lug'atda maqom va tiyilishdir. Shariatda esa u ro'zadorning jamoat masjidida niyyat bilan qolishiga aytiladi.*

الأذان: "في اللغة: مطلق الإعلام، وفي الشرع : الإعلام بوقت الصلاة بألفاظ معلومة مأثورة.

***Azon**: lug`atda mutloq bildirishdir, shariatda esa namoz vaqtini ma'lum rivoyat qilingan lafzlar bilan bildirishdir.*

Aqidaviy terminlar:

الإيمان في اللغة: التصديق بالقلب، وفي الشرع هو الاعتقاد بالقلب والإقرار باللسان.

***Iymon**: lug'atda qalb bilan tasdiq qilishdir. Shariatda esa u qalb bilan e'tiqod qilish va til bilan iqror bo'lishdir.*

الإحسان: لغة: فعل ما ينبغي أن يفعل من الخير. وفي الشريعة: أن تعبد الله كأنك تراه، فإن لم تكن تراه فإنه يراك.

***Ehson**: lug'atda qilinish kerak bo'lgan yaxshilikdir. Shariatda esa u Allohga uni ko'rib turganingdek ibodat qilishingdir, agar sen uni ko'rmayotgan bo'lsang, u seni ko'radi.*

Tasavvuf terminlari:

التقديس: في اللغة: التطهير، وفي الاصطلاح: تنزيه الحق عن كل ما لا يليق بجنابه، وعن النقائص الكونية مطلقاً، وعن جميع ما يعد كمالاً بالنسبة إلى غيره من الموجودات، مجردةً كانت أو غير مجردة.

***Taqdis**: lug'atda poklashdir. Istilohda esa Haqni unga loyiq bo'lmaydigan barcha narsadan va borliqqa odi nuqsonlardan hamda abstrakt yoki noabstrakt bo'lishidan qat'iy nazar Undan boshqa barcha mavjudotlar uchun kamolot hisoblanadigan barcha narsadan pok ekanligi e'tirof qilishdir.*

Nahvga (sintaksis) oid terminlar:

الإسناد: في عرف النحاه: عبارة عن ضم إحدى الكلمتين إلى الأخرى على وجه الإفادة التامة، أي على وجهٍ يحسن السكوت عليه. وفي اللغة: إضافة الشيء إلى الشيء.

***Isnod**: nahvchilar urfida: bir so'zni boshqa so'zga foida to'liq bo'ladigan shaklda, ya'ni undan keyin sukut qilish to'g'ri bo'ladigan tarzda biriktirishdir. Lug'atda esa u bir narsa ikkinchi narsaga qo'shishni bildiradi.*

Yuqorida "isnod" so'zining ta'rifiga e'tibor bo'ladigan bo'lsak, muallif avval so'zning istilohiy ma'nosini, so'ngra esa lug'aviy ma'nosini bergan. Odatda esa avval so'zning lug'aviy ma'nosi, keyin istilohdagi ma'nosi taqdim etilar edi.

Balog'at terminlaridan:

التشبيه: في اللغة: الدلالة على مشاركة أمرٍ بآخر في معنى. وفي اصطلاح علماء البيان: هو الدلالة على اشتراك شيئين في وصف من أوصاف الشيء في نفسه، كالشجاعة في الأسد، والنور في الشمس.

Tashbeh: lug'atda bir narsaning boshqa narsa bilan bir ma'noda mushtarak ekanligiga dalolat qilishdir. Bayon ilmi olimlari istilohida esa u ikki narsa ma'lum bir narsaning o'zida bor sifatlaridan birida mushtarak ekanligiga dalolat qilishdir. Masalan, she'rning shijoati va quyoshning nuri kabi.

Ta'rifot asarini o'rgangan odam Jurjoniy ta'rif orqali sharhlashda asosan fiqh istilohlariga urg'u berganini ko'rishi mumkin. Buni ikki sabab bilan izohlashimiz mumkin. Biri fiqh istilohlari o'zining lug'aviy ma'nosidan uzoq istilohiy ma'noga ega bo'lganligi, ikkinchisi esa fiqh ilmining yuksak ahamiyatga molik ekanligidadir.

1. أ. هدى مناصر. منهج الشريف الجرجاني (ت816هـ) في الكشف عن دلالة المصطلحات من خلال معجمه: التعريفات.مجلة العلوم الانسانية. عدد 40. جامعة قسنطينة 1، الجزائر.2013.
2. أحمد شوقي. مصطفى طوبي. معجم مصطلحات المخطوط العربي. مراكش: المطبعة الوراقة الوطنية. ط1و3. 2005/2003
3. سعيد الأفغاني. الموجز في قواعد اللغة العربية. بيروت: دار الفكر.
4. عبد الهادي الفخلي. تحقيق التراث. جدة:مكتبة العلم. 1982.
5. علي بن محمد الجرجاني. التعريفات. القاهرة: دار الفضيلة. 2004